

OYBEK - O'ZBEK ADABIYOTINING ZABARDAST VAKILI

TTYESI Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Sadullayeva Farangiz Davron qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, mashhur yozuvchi va shoir Oybekning hayoti va ijodi yoritilgan. Unda Oybekning bolaligidan boshlab, ijodiy kamolot sari bosib o'tgan yo'li, mashhur asarlari, o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy hayotiga qo'shgan hissassi haqida so'z boradi. Maqolada shuningdek, uning insoniy fazilatlari va adabiy merosining bugungi yoshlar tarbiyasidagi o'rni ham aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Adib bolaligi, Oybek she'riyati, "Qutlug' qon", "Navoiy", ma'naviyat

Аннотация: В статье рассказывается о жизни и творчестве видного деятеля узбекской литературы, известного писателя и поэта Ойбека. В нем рассказывается о пути Ойбека от детства до творческой зрелости, о его знаменитых произведениях, о его вкладе в духовную и просветительскую жизнь узбекского народа. В статье также размышляется о роли его человеческих качеств и литературного наследия в воспитании современной молодежи.

Ключевые слова: Детство поэта, поэзия Ойбека, «Кутлуг хон», «Навои», духовность.

Annotation: This article covers the life and work of Oybek, a prominent figure in Uzbek literature, a famous writer and poet. It discusses Oybek's path from childhood to creative maturity, his famous works, and his contribution to the spiritual and educational life of the Uzbek people. The article also reflects his human qualities and the role of his literary heritage in the education of today's youth.

Keywords: The poet's childhood, Oybek's poetry, "Kutlug' khon", "Navoi", spirituality

O'zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning nom, ko'plar uchun shunchaki adib emas, balki bir dunyo – tuyg'ular, tasvirlar va o'zbek xalqining ruhiy olami aks etgan ulkan meros demakdir. 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning qadimiy ko'chalarida, bo'zchi oilasida dunyoga kelgan bu zot o'zbek so'z san'atiga nafaqat she'r va nasrning eng muhtasham namunalarini, balki milliy ongning uyg'onishi uchun mash'al bo'lib yonishni ham bildi. Oybekning asarlari zamon va makon chegara tanlamaydi; uning so'zlari o'zbek xalqining chuqur hissiyotlarini, orzularini, dardlarini va g'ururini o'zida mujassam etadi. Uning yozgan har bir qatori, she'ri va hikoyasi nafaqat badiiy, balki ma'naviy ilhom manbai bo'lib, o'zbek adabiyotining qadriga yana bir karra mehr bilan qarashga undaydi.

Oybek adabiyotga faqat badiiy mahorat bilan emas, balki xalqining o'tmishiga, kelajagiga bo'lgan sadoqat bilan ham xizmat qildi. Uning asarlari ko'plab avlodlarni shakllantirib, o'zbek xalqining tarixini, madaniyatini va tilini saqlashda muhim rol o'ynadi. Shu tarzda, Oybek nafaqat adabiyotning buyuk namoyandasi, balki xalqining ongidagi yuksaklikning ramzi bo'lib qoldi.

Oybekning hayoti oddiy, ammo o'ziga xos bir muhitda boshlanadi. Uning bolaligi ham barcha mehnatkash xalq bolalari kabi kechadi. U yoshlikdan uy-ro'zg'orga qarashish, guzardan narsa olib kelish, suv tashish, o'tin yorish, qor kurash kabi yumushlarni bajaradi. Barcha bolalar kabi bahor vaqtlarida tomma-tom oshib, varrak uchirar, dovuchcha qoqar, qish bo'lsa oshiq o'ynar, xo'roz, tuxum va it urishtirishlarda qatnashar, yoz kunlari onasining pinjida qarindosh-urug'larining uylariga «mehmon»ga borar, hayit, sayil va boshqa milliy bayram kezlarida esa o'zida yo'q sevinib, dor o'yini, xalq qiziqchiliklarini, ko'ngil ochar tomoshalarni ko'rishga muyassar bo'lar edi.

Bo'zchilik bilan kun kechirgan oilada o'sgan bolakay uchun dunyo nafaqat paxta va ipakning nozik tolalari, balki xalqning og'zaki ijodi – ertaklar, dostonlar va qo'shiqlar orqali ham ochilgan. U dastlab Oqmasjid mahallasidagi eski maktabda taxsil oladi. Bu

maktabda garchand tarix, geografiya, matematika singari fanlar o'qitilmagan bo'lsa—da, Oybek u yerda So'fi Olloyor, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedil singari mumtoz o'zbek va fors-tojik shoirlari ijodi bilan tanishdi. Oktabr to'ntarilishidan keyin, 1919-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan "Namuna" maktabida ta'lim oladi. Bu yillar uning qalbida so'zga muhabbatning ilk uchqunlarini paydo qilgan bo'lsa, Toshkentdagi ta'lim va tarbiya texnikumi, so'ngra O'rta Osiyo Davlat universiteti bu muhabbatni o'tga aylantirdi. Oybekning o'qishga chanqoqligi, bilim va ijodga intilishi uni nafaqat shoir yoki yozuvchi, balki o'zbek adabiyotidagi buyuk islohotchi sifatida shakllantirdi. U nafaqat ijodkor bo'libgina qolmasdan o'rta maktab va oliygohlarda siyosiy iqtisod fanidan dars berib o'zini kuchli pedagog sifatida ham namoyon etgan.

Oybekning adabiyotga kirib kelishi uning hayotining muhim davralaridan biridir. Uning ilk she'riy asarlari adibning Toshkentdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qib yurgan paytlarida yozilgan. Oybekning ilk she'ri 1922-yilda "Cholg'u tovushi" nomi bilan "Armug'on" jurnalida chop etilgan. Keyinchalik uning 1926-yilda ilk she'riy to'plami "Tuyg'ular" nomi bilan bosmadan chiqadi. Oybekning "Ko'ngil naylari" (1929), "Mash'ala" (1932), "Baxtiyor va Sog'indiq" (1933) kabi she'riy to'plamlari ham she'riyat ixlosmandlari uchun namoyon etiladi. Adibning she'rlari o'qigan odamning qalbida nafis bir iz qoldiradi — u tabiatning sokin go'zalligidan tortib, inson ruhining eng chuqur hislarigacha go'zal tasvirlab o'tilgandi. Oybekning yetuk insonligini, muhabbatga tashna bir qalb ekanligini uning ilk she'ridan tortib so'nggi satrlarigacha, barcha ishqiy she'rlari faqat bir ayolga — uning rafiqasi Zarifa Saidnosirovaga bag'ishlanganligini ko'rishimiz mumkin. Shunday ishqiy she'rlaridan biri

Ko'zlari cho'lpondek nozli sevgilim!

Ko'zingga bir boqib, men sevdim seni.

Xayoling eslarkan qonaydi dilim,

Yolboray, go'zalim, unutma meni!

Daryolar singari ko'nglim jo'shqindi,

Bir tola soching-la bog‘lanib qoldi.

Vaslingga yetganim na go‘zal kundi,

Ayriliq siynamga yong‘inlar soldi.

Xayoldek yo‘qoldi yayragan chog‘lar...

Darding-la so‘narkan, qora sho‘x ko‘zim.

Seni erkalaydi dengiz, qirg‘oqlar,

Ko‘zlari cho‘lpondek nozli sevgilim!

Oybek she‘riyatning xilma – xil janr va mavzularida ijod etdi. Muhabbat lirikasi, mehnat lirikasi, tabiat lirikasi, harbiy va siyosiy lirikaning go‘zal namunalarini yaratdi. Uning she‘rlari sodda, ravon va o‘tkir ifodalarga boy bo‘lib, o‘zbek she‘riyatiga yangicha bir nafas olib kirdi.

Ammo Oybek faqat shoir sifatida emas, balki yozuvchi va adabiyotshunos olim sifatida ham kata muvaffaqiyatlarga erishdi. Adibning “Qutlug‘ qon” romani badiiy jihatdan yetuk, mukammal bo‘lgan asar sanaladi. Unda haqiqiy o‘zbek xalqining insonparvarligi, soddadil, mehnatkash xalqning orzu-umidlari, intilishlari, xasratlari-yu, iztiroblari bayon etilgan. Shuningdek, asar o‘zbek xalqining 1917 – yil to‘ntarish arafasidagi og‘ir hayoti, ozodlik yo‘lida olib borgan kurashlari keng tasvirlangan. Romanning bosh qahramoni Yo‘lchi soddadil, halol, vijdonli, samimiy, mard, chidamli, sabr bardoshli, haq talab, qishloq yigiti, yangi hayot kurashchisi sifatida shakllana boshlagan o‘zbek mehnatkashi obrazidir. Asarda o‘sha davr xotin-qizlarning qismati, iztiroblari, orzu-umidlari, intilishlarini ham adib mahorat bilan ta’rif etadi.

Oybekning Navoiy haqida roman yozishi tasodifiy ish emas. Butun umri bo‘yi mumtoz o‘zbek adabiyoti va uning cho‘qqisi – Alisher Navoiy ijodini sevib o‘rgangan Oybek, bu romanni yozishdan oldin, ulug‘ shoirning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan qator ilmiy maqolalar yaratdi. „Navoiy“ romani — 1942-yilda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek tomonidan yozilgan tarixiy roman.

Oybekning ushbu romanida Navoiyning hayot yo‘li, o‘sha davrdagi hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Roman turli qarama-qarshiliklar va muhokamalardan so‘ng ilk marotaba 1944-yilda nashr etilgan. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlari, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochilib boradi. Romanda Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo‘min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. Oybek bu roman uchun 1946-yilda Stalin mukofotiga ham sazovor bo‘ldi va o‘zbek adabiyotidagi emg muhim yutuqlardan birini qo‘lga kiritdi.

Oybek urushdan keyingi yillarda “Oltin vodiya shabadalar”(1949), “Quyosh qoraymas”(1943-1958), “Ulug’ yo‘l”(1967) romanlari, talaygina she‘r va dostonlari bilan o‘zbek adabiyotini boyitdi. Oybek qalamiga mansub adabiy-badiiy asarlar, ilmi–publitsistik maqolalar va tarjimalar adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirova boshchiligidagi 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”da nashr etilgan.

Oybek — o‘zbek adabiyoti va madaniyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning boy hayoti va sermahsul ijodi milliy adabiyotimiz taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat shoir va yozuvchi, balki tarjimon, olim va jamoat arbobi sifatida ham katta iz qoldirgan. Oybekning “Navoiyning yuragi”, “Qutlug‘ qon” kabi asarlari, shuningdek, A.S. Pushkin, L.N. Tolstoy va boshqa jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishi, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan. Uning asarlarida insonparvarlik, haqiqat, milliy qadriyatlar va adolat g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Oybek merosi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yoshlarga ma’naviy ozuqa va ibrat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. uz.wikipedia.com
2. Oybek. “Qutlug‘ qon”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uy. Toshkent– 2019.
3. <https://tafakkur.net/muso-toshmuhammad-ogli-oybek>